

4.3. "Buyurtmachi" tomonidan oqova suv hajmining oylik to'lovi "Ijrochi" tomonidan har oyning kunigacha hamda o'tgan oy uchun taqdim qilingan hisobvaraqlar asosida amalga oshiriladi keyingi oyning oldindan to'lovini amalga oshirish uchun hisobvaraqlar elektron shaklda axborotizimiga yuklanadi. (2019 yil 25 iyundagi № 522-son VMQ va 2020 yil 14 avgustdag'i № 489-son VMQ). "Buyurtmachi" tomonidan oldindan to'lov amalga oshirilmagan taqdirda, "Issiqlik manbai" DUK "Buyurtmachi"ni qo'shimcha ogohlantirishsiz oqava suv chiqarish xizmatlarini to'xtadi.

4.4. Oqova suvlari qabul qilish 100% (yuz foiz) oldindan to'lov amalga oshirilgandan so'ng tiklanadi. Agar qayta ulanganda, hisoblangan bazaviy qiymatning o'n baravari miqdorida to'lov o'ndiriladi

## 5. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

### 5.1. "Ijrochi" ning majburiyatlari:

5.1.1. Shartnomaga muvofiq kanalizatsiya xizmatlarini ko'rsatish.

5.1.2. Agar xo'jalik.oqova suvlarni qabul qilishni to'xtatmasdan amalga oshirib bo'lmaydigan kanalizatsiya kollektorlarida ta'mirlash ishlarni bajarish zarur bo'lsa, "Ijrochi" "Buyurtmachiga" ish boshlanishidan 2 kun oldin ogohlantiradi.

### 5.2. "Ijrochining" huquqlari:

5.2.1. Agar "Ijrochi"ning kanalizatsiya tizimlariga ruxsatsiz ulanish aniqlansa, ushbu ulanish "Ijrochi"ning kanalizatsiya tarmoqlaridan zudlik bilan uzilishi kerak, "Buyurtmachiga" esa tarmoqdan uzilish bilan bog'liq ishlarni bajarish uchun xarajatlar miqdorini taqdim etish kerak (hisob-kitob bo'yicha).

### 5.3 "Buyurtmachi" ning majburiyatlari:

5.3.1. "Iste'molchilarga suv ta'minoti va kanalizatsiya xizmatlarini ko'rsatish qoidalariiga" rioya qilish.

5.3.2. Kanalizatsiya tarmoqlariga ruxsatsiz ulanish uchun qonun hujjalariга muvofiq javobgar bo'lish.

5.3.3. "Ijrochi"ning kanalizatsiya tarmoqlariga "Ijrochi" tomonidan ulanganda kanalizatsiya tarmoqlariga ulanish bilan bog'liq ishlarning xarajatlarini to'lash.

5.3.4. Shartnoma majburiyatlarining so'zsiz bajarilishini ta'minlash.

5.3.5. Taqdim etilgan kanalizatsiya xizmatlari uchun o'z vaqtida to'lov va oldindan to'lovlarini amalga oshirish.

5.3.6. Pochta va bank rekvizitlari o'zgarganligi to'g'risida o'z vaqtida xabar berish.

## 6. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI.

6.1. Shartnoma shartlarida belgilangan ifloslantiruvchi moddalar konsentratsiyasi maksimal ruxsat etilgan MREO (PDS) konsentratsiyadan yuqori bo'lgan oqova suvlarni oqizganlik uchun "Buyurtmachi" "Ijrochi"ga ta'mirlash-tiklash ishlari va normativdan ortiqcha oqizganlik uchun xarajatlarini to'laydi.

6.2. Ushbu "Shartnoma" ishtirokchilarining javobgarligi O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy asoslari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjalariга muvofiq belgilanadi.

## 7. FORS-MAJOR.

7.1. Taraflar ushbu shartnomada ko'zda tutilgan majburiatlarni qisman yoki to'liq bajarma ganliklari uchun javobgarlikdan ozod qilinadi, agar bu favqulodda vaziyatlar, ya'ni urush e'lon qilinishi va boshlanishi, epidemiya, embargo, toshqin, yong'inlar yoki boshqa tabiiy ofatlar, hukumat qarorlari, agar ushbu holatlар ushbu shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir ko'rsatdi.

7.2. Fors-major holatlari yuzaga kelganligi to'g'risida taraflar ushbu holatlari yuzaga kelgandan so'ng darhol bir-birlarini xabardor qilishlari shart.

7.3. Fors-major yuzaga kelishi ishonchliligi O'zbekiston Respublikasining vakolatli tashkiloti tomonidan tasdiqlanishi kerak. Bunday holda, ushbu shartnoma bo'yicha majburiatlarni bajarish muddati fors-major holatlari davomida qoldiriladi.

7.4. Favqulodda vaziyatlar to'g'risida xabar berishga beparvolik, bildirishnomani 3 (uch) kundan ortiq muddatga kechiktirish va favqulodda vaziyatlar yuz bergan paytdan boshlab 25 (yigirma besh) kun ichida vakolatli tashkilotning tasdiqini taqdim qilmaslik, o'z majburiyatlarini bajarmaganlik sababi tomonning yuqoridagi holatlarga murojaat qilish huquqini istisno qiladi.

## 8. SHARTNOMANING BOSHQA SHARTLARI